

## O'QISHNI TUSHUNISH NAZARIYALARI

A. Zaripova<sup>1</sup>*Annotatsiya:*

Mazkur maqolada o'qishni tushunishning nazariyalari yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* o'qitish strategiyalari, o'qishni tushunishning nazariyalari, o'qishni tushunishning darajalari, to'g'ridan-to'g'ri tushunish darajasi, xulosa chiqarishda tushunish darajasi, tanqidiy tushunish darajasi.*doi:* <https://doi.org/10.2024/2e33v628>

Ba'zi mutaxassis olimlar tomonidan o'qishni tushunishning ba'zi ta'riflari mavjud. Braunning fikriga ko'ra, o'qishni tushunish birinchi navbatda to'g'ri, samarali tushunish strategiyalarini va turli xil usullarni ishlab chiqish masalasini talab qiladi, Pirson Jonsonning fikricha esa, o'qishni tushunish bir jarayondir bunda yangilikni mavjud bilimga bog'lash mumkin, Smitning fikriga ko'ra esa o'qishni ko'proq pragmatik tarzda yozuvchi tomonidan vizual va vizual bo'lmagan ma'lumotlar orqali yetkazilgan xabarni tushunish sifatida belgilaydi deb Skripsi Sagita o'z izlanishlarida keltirib o'tgan. Ushbu tushuncha bo'yicha o'qish nazariyalari munozarasi iboraning chiqish nuqtasi bo'ladi. Keyin, Grabe va Stallerlar ham umumiy tushunish uchun o'qish matndagi ma'lumotlarni tushunish qobiliyatini anglatishini va uni to'g'ri talqin qilish kerakligini aytadi. Biroq, o'qishni tushunish qobiliyatlari juda murakkab va ko'p jihatdan farqlanadi, masalan, vazifalar, motivatsiyalar, maqsadlar va til qobiliyati kabilar.

Xillerix o'qishni tushunishni uch darajaga bo'lib tasniflaydi: to'g'ridan-to'g'ri ma'noda tushunish, xulosa chiqarishda tushunish va tanqidiy tushunish. *To'g'ridan-to'g'ri tushunish darajasi* talaba matnda ochiq aytilgan faktlarni eslab qolishini talab qiladi masalan, nomlarni, narsalarni va hududlarni eslab qolish. *Xulosa chiqarishda tushunish darajasi* talabaga duch kelgan matn va shaxsiy tajriba, o'ziga tegishli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni taklif qilish imkonini beradi. Bu esa matnni tushunishga yordam beradi, muallif nimani nazarda tutgan va nima ma'no yotganligini, umumiy xulosalar ishlab chiqishni, asosiy g'oyani xulosa qilishni, ketma-ketlik, mulohaza yuritish, natijalarni bashorat qilish imkonini beradi. *Tanqidiy tushunish darajasi* muallifning uslubi va matnning boshqa ba'zi jihatlari haqida muvozanatli mulohazalar amalga oshirishga olib keladi.

Baholash yoki xulosa chiqarish bilan bog'liq markaziy masalalar, ushbu masalani qo'llab-quvvatlash, til uslubi va mantiq ishlatilgan holda xulosalarga kelish muhim omil hisoblanadi. O'qishni tushunish – bu fikr bog'langan matndan ma'no chiqarish jarayonidir, u so'z boyligi (lug'at) va fikrlashni o'z ichiga oladi, talaba ma'no yaratish uchun matn bilan faol shug'ullanadi, faol ishtirok etish esa oldingi bilimlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu esa so'z va ifodadan xulosa chiqarishni talab qiladi, yozuvchi o'z ishida ma'lumot, g'oyalar va nuqtai nazarlarni yetkazish uchun foydalanadi.

<sup>1</sup> Zaripova Aziza Shaxobiddinovna, Samarqand davlat chet tillar insituti tayanch doktoranti

O'qishga bo'lgan bunday qarash uni an'anaviy qarash kabi mahsulot sifatida emas, balki jarayon sifatida ko'radi va ta'lim oluvchining kognitiv jarayonlarini o'qish jarayonida ancha markaziy o'ringa qo'yadi. Garchi o'qish haqidagi asosiy fikr tushunishni psixolingvistik modeldagi kabi ta'lim oluvchi tomonidan birgalikda qurilgan jarayon sifatida bo'lsa-da, bu turli xil qarashlar va o'qishni tushunishni konseptuallashtirishning muhim usullarini o'z ichiga oladi: pastdan yuqoriga ishlov berish va yuqoridan pastga ishlov berish. Ularning har biri o'qish strategiyalari muhimligi sababli ravon o'qish bilan birga muhokama qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ularning qarama-qarshi so'zlariga qaramay, yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga ishlov berish bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi shart emas. O'qishni tushunishning ko'pgina nazariyalari ikkalasini ham tan oladi, lekin har biriga turli darajada urg'u beradi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

**O'qishni tushunishni konseptuallashtirishning muhim usullari**

№	Usullar	Usullar mazmuni
1.	Pastdan yuqoriga ishlov berish	Pastdan yuqoriga ishlov berish odatda leksikadan ma'no chiqarishni anglatadi va matn sintaksisi bilan bog'liq bunga dekodlash kiradi, bu "harflarni (grafemalarni) tovushlarga (fonemalarga) va asosan tilga" aylantirish jarayonidir deydi Jeon va Yamashita [1; 163-b.]. U lug'at va grammatik bilimlarni o'z ichiga oladi. SVRning kuchli ko'rinishi lingvistik tushunish ostida grammatikani o'z ichiga oladi, ammo an'anaviy ravishda u pastdan yuqoriga ishlov berish darajasiga kiritilgan unda ma'no kichik birliklardan boshlanib hosil bo'ladi. Jumlani tushunish uchun gapdagi so'zlarni yoki kalit so'zlarni tushunish kerak (yoki ularning ba'zilarini tushunish kerak bo'ladi). Ta'lim oluvchilar matnni o'qib, maqsadiga qarab tushuna olishlari uchun matndagi so'zlarining 95-99 foizini bilishlari kerakligi Mehrpour tomonidan taxmin qilingan [3; 294-b.].
2.	Yuqoridan pastga ishlov berish	Yuqoridan pastga ishlov berish tushunishni "nimadirdan" olish usulini anglatadi, bunda umumiy xabar va matn tuzilishi quyi darajali birliklarga bo'linadi. Bu borada Moskovsky, Jiang, Libert va Fagan izlanishlar olib borgan [6; 257-b.]. Bu matnning ma'nosini yaxshiroq tushunishga yordam berish uchun matndan tashqari ma'lumotlaridan foydalanishni, matn qismlarini bir-biri bilan bog'lash orqali tushunishdagi bo'shliqlarni bartaraf etishni va matnni o'rnatish (ya'ni, matni tushuntirish yoki tabloid maqola) ma'no to'plashlarni qamrab oladi. Oldingi bilimlarni faollashtirishni Gudmanning psixolingvistik modelida ko'rish mumkin. Ma'no matnning kattaroq rasm ko'rinishidan kichikroq birliklarga filtrlanadi, ko'p so' bilish kontekstda muhimdir va agar kontekst tushunilmasa, so'zlarning ma'nosi tushunarsiz bo'lishi mumkin. Yuqoridan pastga ishlov berish nofilologik til o'rganuvchilariga mahalliyashtirilgan matn ma'nosini shakllantirishda yordam berishi va matn tuzilishini eslab qolishlarini oshirishi Horiba, van den Broek va Fletcherlar tomonidan aniqlangan [4].
3.	Ravonlik	Ravonlik odatda dekodlash bilan bog'liq, biroq, uni alohida jihat sifatida ko'rish lozim, chunki u pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga ishlov berish o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Dekodlash o'qish paytida sodir bo'ladigan uchta asosiy jarayondan biridir. Qolganlari matnni

	<p>tushunish va unga e'tibor berishdir [5; 169-b.]. Samuelsning so'zlariga ko'ra, ravonlik ta'lim oluvchilarning dekodlashga e'tibor berish miqdori avtomatik jarayon bo'lib, shu bilan tushunishga berilishi mumkin bo'lgan e'tiborni kamaytiradi degan. Silverman esa bu avtomatik jarayonni ravonlikni "avtomatiklik, so'z boyligisiz so'zlarni va matnni o'qish tezligi va aniqligi" deb ta'riflab, ravonlikka tenglashtiradi. Ravonlik o'qishni tushunishda muhim rol o'ynaydi, chunki o'qish tezligini tezlashtirish o'qishni tushunishning yuqori darajalariga olib kelishi aniqlangan. Bu jarayonda matnga cheklangan e'tibor nazariyani mustahkamlaydi, o'qish tezligi matn qanchalik yaxshi tushunilishini aniqlab beradi va ravon o'qiy oladigan ta'lim oluvchi bo'lish uchun tushunishning qismlari avtomatlashtirilgan bo'lishi kerakligi Gorsuch va Taguchi tomonidan ta'kidlangan [2; 32-b.]</p>
--	---

Xulosa qilib aytganda, so'zni aniqlash, sintaksis bilimi, fonologik bilim, gaplararo tushuncha hosil qilish, ulardan ba'zilari ta'lim oluvchi jarayonda ravonlikni oshirish va natijada o'qishni tushunish darajasini oshirish uchun avtomatik bo'lishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. Velde Ch. *Crossing borders: an alternative conception of competence / 27 Annual SCIJTREA conference, 1997. – P. 27-35.*

[2]. Зимняя И.А. *Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // Труды методологического семинара «Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы». – М., 2004. – 40 с.*

[3]. Уласевич С.Н. *Место предмета «Английский язык» в учебном плане начальной, средней и старшей школы. Рекомендации. – М.: Релод, 2012. – 31 с.*

[4]. Хуторской А.В. *Технология проектирования ключевых и предметных компетенций // Интернет-журнал «Эйдос». – 2005. – 12 декабря.*

[5]. *Философский энциклопедический словарь. – М.: Инфра, 2004. – 576 с.*

[6]. Эльконин Д.Б. *Понятие компетентности с позиций развивающего обучения // Современные подходы к компетентностно ориентированному образованию. – Красноярск, 2002.*